

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**OLIY TA'LIM VA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING  
INTEGRATSIYALLASHUVI.**

**Qurbonova X.B.**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, stajyor-o'qituvchisi, Buxoro sh.*

[qurbonovax709@gmail.com](mailto:qurbonovax709@gmail.com)

**ИНТЕГРАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ.**

**Курбонова Х.Б.**

*Бухарский инженерно-технологический институт,*

*преподаватель, г. Бухара, [qurbonovax709@gmail.com](mailto:qurbonovax709@gmail.com)*

**INTEGRATION OF HIGHER EDUCATION AND PROFESSIONAL  
EDUCATIONAL INSTITUTIONS.**

**Qurbonova X.B.**

*Bukhara Engineering and Technology Institute, teacher, Bukhara*

[qurbonovax709@gmail.com](mailto:qurbonovax709@gmail.com)

Oliy ta'lim muassasalari va professional ta'limi muassasalarining integratsion hamkorligini ta'lim borasida eng ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, tajribada qo'llashni rejalashtirgan O'zbekiston ham shunday tezkor rivojlanish yo'lini tanlamogda. Oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarining integratsion hamkorligi to'g'risida fikr yuritishdan avval, "integratsiya" tushunchasini mazmun mohiyatiga to'xtalib o'tsak. [1]

Integratsiya –juda keng ma'nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, zarur. [2] "Integratsiya" tushunchasi turli ilmiy adabiyotlarda qo'llanilgan va ta'riflar berilgan. [3] "Integratsiya" - lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi; Integratsiya - o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. [4] Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo'lishi mumkin – bu holda ular sistema butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi. [5]

Gerbert Spenser (1820–1903) falsafasida sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarini sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o'tishi tushunilsa, dezintegratsiya – buning aksi, ya'ni zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o'tishidir. [6] Spenser "integratsiya" so'zini, ko'pincha, agregatsiya tushunchasi bilan teng ma'noda qo'llaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, Quyosh sistemasi,

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

sayyoralar, organizm, millat rivoji integratsiya va dezintegratsiyaning birin-ketin o'rin almashinuvi natijasidir. [7]

Yensh (1883–1940) psixologiyasida integratsiya deganda, ruhiy hayotning ayrim xususiyatlarini butun ma'naviy hayot majmuiga ta'sir qilishi tushuniladi. [8]

Smendning davlat to'g'risidagi ta'limotida integratsiya deganda davlatning, uning faoliyati shakllarining o'zaro ta'siri natijasida doimiy yangilanib turishi anglanadi. [9]

Jahon jamiyatining barcha sohalarida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. [10] Jumladan, Yevropa mamlakatlarining integratsiya masalasiga Yevropadagi quyidagi tadqiqotlar markazi<sup>2</sup>: (Coursera – proekt v sfere massovogo onlayn– obrazovaniya, osnovanny professorami informatiki Stenfordskogo universiteta Endryu Dafnoy Koler) va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan) European University Institute, Max Plank Institute, Harvard Law School, European Integration (ECSA-Austria), ARENA (Oslo), Mannheim Centre for European Social Researchning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida integratsiya so'zi turli sohalarida qo'llanib kelinayotgan atamalardan biri hisoblanar ekan. Integratsiya so'zi lotincha integer - "butun" so'ziga asoslangan atama, ilmiy faoliyatning ko'plab sohalarida (psixologiya, geosiyosat, yurisprudensiya, tarix, iqtisodiyot va h.k.) ishlatilgan va umumiy ma'noda bir nechta o'xshash ob'ektlarni yagona ob'ektga birlashtirish jarayonini anglatadi. [11] Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. [12]

Emil Dyurkgeym (1858-1917) - sotsiologiya fanini yaratuvchilardan biri Integratsiya, bu sotsiologiyada bir daraja bo'lib, unda turli institutlarning faoliyati yoki funksiyalari, jamiyatdagi quyi tizimlar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiradi. [13].

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. [14]

Integratsiya (lot. Integeration-tiklash, to'ldirish, birlashtirish. Integer-yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma'nosida tushuniladi. [15] Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz. [16] Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondoshuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. [17] Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondoshuv mutaxassislikka oid bilim, ish-xarakat usullari va shaxsiy safat hamda fazilatlarni yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.<sup>3</sup>

<sup>2</sup>(<http://activelearn.ru/products>. (Media Access Control – управление доступом к среде); SCORM (Shareable Content Object Reference Model – система управления процессом обучения);

<sup>3</sup>И. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования. - Воронеж, 2009. С. 13-18

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

Yuqorida ko'rsatilgan fikrlar shuni ta'kidlash joizki, "Integratsiya"-yaxlitlash butunlash va ikki tizimni bog'lashga xizmat qiladigan tushuncha hisoblanadi

Yuqori texnologiyadan va intellektual mahsulotdan foydalanish uchun yuqori darajadagi ta'lim talab etiladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasasi va kasb-hunar ta'limi muassasalarining integratsion hamkorligini rivojlantirish va takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biridir. [18] Professional ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining malakasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasasida qulay shart-sharoitlar yaratish samarali hamkorlikni tashkil etishni muhim omillaridan biri hisoblanadi. [19] O'zbekiston rahbariyatining ta'lim tizimini isloh qilish va uning ilmiy sohadagi o'rnini mustahkamlash borasidagi uzoqni ko'zlagan siyosati oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimining takomillashuviga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan<sup>4</sup>. Mamlakatimizda professional ta'lim tizimini isloh qilish va Oliy ta'lim muassasalari bilan integratsion hamkorligini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. [20] Bunda Professional ta'lim tizimini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston ham mazkur ta'lim tizimiga oid bir qancha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Professional ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori mijozlar ehtiyojini qondirish va raqobatdosh ustunlikka ega va uning talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. [21]

Jahon taraqqiyotining innovatsion yo'nalgan va globallashtirish jarayonlarining kengayib borayotgan bugungi bosqichida rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish sohasida emas, balki bilim va texnologik g'oyalar sohasida raqobatlashayotgan bir paytda aynan fan va ta'lim davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei, ular asosida yaratilayotgan intellektual kapital esa ularning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi strategik omil sifatida tan olinmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar oliy ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Intellektual mehnat bozori sharoitida oliy ta'lim roli uning sifatiga qo'yilayotgan yuqori darajadagi talablar bilan hamohang o'sib bormoqda. Mark Mallok Braun ta'biri bilan aytganda, "ta'lim mamlakatlar raqobatida na faqat fundament, balki ularning muvaffaqiyati hamdir"<sup>5</sup>.

Oliy ta'lim va Professional ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning integratsiyalashuvi, talabalarning mobilligi, ta'lim dasturlarining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalari qatorida ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib

<sup>4</sup>Мамлакатимиз таълим тизимида узвийлик ва узлуксизликни таъминлашда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясининг роли ва аҳамияти. Илмий –амалий конференция материаллар туплами. 05 июн 2015 йил 1-китоб. Тошкент 2015 й

<sup>5</sup>Всемирный форум по образованию. Заключительный доклад. - Дакар, Сенегал, 2000, 26-28 апреля.

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

bormoqda. Ta'limda hamkorlikning sifati uning real "natijasi", ya'ni bitiruvchilarning malakalari bilan belgilanishiga va mehnat bozorida o'z o'rinlarini egallashlariga alohida urg'u berilmoqda. Shu bilan birga hozirgi zamon oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalaridan biri ta'lim sifati ekanligi e'tirof etishimiz mumkin. Oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarining integratsiollashuvi ta'limda samarali hamkorlik sifatida dunyoning rivojlangan davlatlarida keng o'rganilmoqda va joriy etilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kasb hunar ta'lim muassasalarida ta'lim sifatiga e'tibor susaygan bo'lsa-da, ammo bugungi kunda tizim sifatida endi shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda professional ta'limni oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan birgalikda hamkorlikning aniq, barqaror va istiqbolli tartib-qoidalari texnologiyalari yaratilmoqda. [22]

Respublikamiz oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni, talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish, professor-o'qituvchilar faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, bilimini va pedagogik mahoratini baholashning zamonaviy tizimini yaratish, ta'lim jarayoni va hamkorlik ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim va professional muassasalarining faol ishtirokini yo'lga qo'yish, sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-amaliy faoliyatni tashkil etish, professional ta'lim tizimini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yalpi sifat menejmenti prinsiplari asosida boshqarish tizimini joriy etish orqali hamkorlikdagi ta'lim sifatini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ayni paytda olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijasida bir qator e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalarning mavjudligi aniqlandi: talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi bugungi kun talablariga, ayniqsa, asosiy ish beruvchilar talablariga mos kelishi; bitiruvchilarning ijtimoiy-intellektual faollik darajasini yuksaltirish; professional ta'lim talabalarini mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishi; hamkorlik doirasida akademik mobillikni qo'llab quvvatlash; hamkorlikda talabalar faolligini oshirish kabi omillarni e'tirof etib, ushbu omillarni samarali amalga oshirish oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarini integratsion hamkorligini samarali yo'lga qo'yish hamda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va respublikamiz oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida joriy etishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://activelearn.ru/products>. (Media Access Control – upravlenie dostupom k srede); SCORM (Shareable Content Object Reference Model – sistema upravleniya protsessom obucheniya);
2. I. N. Zornikov, L. P. Volkova. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Voronej, 2009. S. 13-18
3. Mamlakatimiz ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda fan, ta'lim va ishlab chikarish integratsiyasining roli va ahamiyati. Ilmiy –amaliy konferensiya materiallar to'plami. 05 inyun 2015 yil 1-kitob. Toshkent 2015 y
4. “Ways to develop cooperation of higher education and professional educational institutions in the distribution of labor resources in the region”.
5. KB Kurbanova - International Bulletin of Engineering and Technology, 2023
6. Ochilov S. B., Tursunova Z. N., Begmurodovna Q. X. “Study of changes in economic indicators depending on time using continuous functions” //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 10. – №. 1. – C. 143-149.
7. Xasanova G., Qurbonova X. “Ways to promote integrated collaboration of higher education and vocational colleges in economic modernization” //Интернаука. – 2020. – №. 7-1. – C. 66-69.
8. Karomatovna M. J. ways to increase the investment potential of the region in modern conditions //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №.
9. Musayeva, Jamila Karomatovna O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aktivlarni boshqarishning o'rni va roli // orienss. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirishda-aktivlarni-boshqarishning-o-rni-va-rol> (дата обращения: 07.05.2023).
10. Dilnoza R., Rukhsora A. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE REGIONS //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 226-232.
11. Раҳматов Ш. А., Алимова Р. Х., қизи Ахатова Р. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ РАЎБАРЛАРИ ИДЕАЛ ВА РЕАЛ ХИСЛАТЛАРИНИ ТАҚҚОСЛАШНИНГ ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИКДАГИ АҲАМИЯТИ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 50-56.
12. Раҳматов Ш. А., Алимова Р. Х., Субханова Н. Х. SCIENTIFIC THEORIES AND CONCEPTS IN CREATING ENTREPRENEURSHIP UNIVERSITIES FOCUSED ON INNOVATION //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 12-7. – С. 20-26.
13. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

(ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 2. [View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS \(sciencesage.info\)](#)

14. Musayeva J. K. O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O ‘RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – С. 554-564.

15. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. [View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View](#)

16. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615>

DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>

17. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.

18. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.

19. Мусаева Ж. К., Жумаева Д. Х. Особенности анализа основных фондов и инвестиций на предприятиях //Бенефициар. – 2019. – №. 52. – С. 7-10.

20. Мусаева Ж. К. РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ //Инновационное развитие. – 2017. – №. 4. – С. 70-71.

21. Мусаева Ж. К. СТРАТЕГИЯ И ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА //Ученый XXI века. – 2017. – С. 80.

22. Shavkatovich P. S., Bakhodirovna N. Z. INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATION ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 22. – С. 118-121.